

KOREYS MADANIYATIDA “OBRO‘NI SAQLASH” TUSHUNCHASI

Qutbiddinova Moxiraxon Faxriddin qizi

Makiii2008@gmail.com

+998 90 788 7279

Annotatsiya. Koreys madaniyatida ijtimoiy munosabatlar va shaxslararo munosabatlarda “chemyon” (面子) tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. Koreys tilida “chemyon” so‘zi “yuz”, “obro‘” yoki “ijtimoiy hurmat” ma’nolarida qo‘llanilib, u insonning jamiyatdagi mavqeyini, sha’nini ifodalaydi. Mazkur maqolada “chemyon” tushunchasining kelib chiqishi, uning koreys madaniyatidagi o‘rni, jamiyatdagi ta’siri va zamonaviy hayotdagi ahamiyati tadqiq etiladi.

Kalit so‘zlar: koreys madaniyati, chemyon, obro‘, hurmat, jamiyat, konfutsiychilik etikasi.

Koreys jamiyatining asosiy ijtimoiy tamoyillaridan biri bo‘lgan **chemyon** (面子) tushunchasi “yuz”, “obro‘”, “ijtimoiy hurmat” ma’nolarini anglatadi. Chemyon ijtimoiy hurmat va sha’n maqomini ifodalaydi. Bu tushuncha Sharqiy Osiyo madaniyatlariga xos bo‘lib, ayniqsa, Koreyada shaxslararo munosabatlarni boshqarishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi [Brown & Levinson, 1987; Kim, 2007].

“Chemyon” xitoycha “mianzi” (面子) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “yuz” yoki “bosh” ma’nosini bildiradi.

Ushbu tushuncha xitoy lingvomadaniyati vakili uchun o‘zini-o‘zi boshqarish qobiliyatini saqlab qolish, o‘z qadr-qimmatini yo‘qotmaslik, shuningdek, boshqalar oldida “yuzini yo‘qotmaslik”, ya’ni “obro‘yini to‘kmaslikka” harakat qilishni anglatadi. Bundan xitoyliklarning muloqot uslubida “murosaga kelish” hamda “muvofiqlik” tushunchalarining ustuvorligi ayon bo‘ladi.

O'zbek lingvomadaniyatida aynan xitoy etnotipiga xos bo'lgan "yuz" (面子 miànzi) tushunchasining garchi to'liq bo'lmasa-da, *obro'* so'zi bilan yasalgan iboralar orqali anglatish mumkin. O'zbek tilidagi *obro' (y)* so'zi fors tilidagi "obi ro'y", ya'ni (ob – "suv", ro'y – "yuz") "yuz suvi" ma'nosini ifodalagan iboradan o'zlashgan. [Shamsiyeva 2023: 44].

Koreys madaniyatida "chemyon" tushunchasi konfutsiychilik odob-axloqi doirasida rivojlangan bo'lib, unda inson o'zini boshqalar ko'zida qanday tutishi va jamiyatda o'z o'rnini saqlashi muhim ahamiyat kasb etadi [Choi, 2009].

Ma'lumki, konfutsiychilik odob-axloqiga ko'ra, shaxsning jamiyatdagi o'ri, vazifasi, shuningdek, o'zaro hurmat tamoyillari asosiy o'rin tutadi. Chemyon – bu nafaqat o'z sha'nini himoya qilish, balki boshqalar bilan munosabatlarda uyg'unlikni saqlash vositasi hisoblanadi [Yoon, 2015].

"Chemyon" nimani anglatishini tushunmasdan, koreyslarning xulq-atvorini tushunish mumkin emas. "Chemyon" – jamiyat tomonidan insonning ijtimoiy me'yorlarga qanday mos kelishini baholashdir. Bu uning ijtimoiy mavqeyi, uning ichki nazorat me'yorlariga emas, balki jamiyatning tashqi me'yorlariga rioya qilish qobiliyatidir.

Koreys jamiyatida ijtimoiy munosabatlar ko'pincha chemyonni saqlashga qaratilgan bo'ladi. Binobarin, chemyon nafaqat shaxs, balki jamoa, oila, tashkilot, hatto davlatda ham mavjuddir.

Ish joyidagi munosabatlarda chemyon tamoyiliga qat'i amal qilinadi. Rahbarlarga hurmat ko'rsatish, ular oldida yuzni yo'qotmaslik (*obro'yini to'kmaslik*), shuningdek, o'z xodimlarining hamkorlik va hamjihatligi ish samaradorligini oshiradi [Park, 2018].

Ochiq tanqid yoki qarama-qarshilik yuzasidan "yuzni yo'qotmaslik" muhim ahamiyatga ega. Masalan, ish joyida xodimning rahbarni ochiq tanqid qilmasligi, uning qarorlarini so'zsiz qabul qilishi va h.k. xatti-harakatlar *obro'* saqlashning ko'rinishi sanaladi [Lee, 2012]. Agar ishchi rahbarning qarorini ochiq tanqid qilsa, bu rahbarning *obro'siga* putur yetkazishi mumkin. Shuning uchun aksariyat hollarda noroziliklar noaniq shaklda ifodalanadi yoki boshqa yo'llar bilan hal qilinadi.

Ko‘rinadiki, bunday xatti-harakatlar jamoaviy uyg‘unlik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Ta’lim tizimida o‘qituvchilarga nisbatan hurmat va yuzni saqlash tamoyillari bolalarga yoshligidan singdiriladi, bu esa o‘z navbatida jamiyatda tartib va hurmat tizimini mustahkamlaydi.

Umuman, “yuz” – bu odamning o‘zini o‘zi baholashi emas, balki unga guruh tomonidan baho berilishidir. “Yuzingizni” yo‘qotingizmi, demak siz allaqachon o‘zingizni guruhdan tashqarida ko‘rasiz va natijada mavqeyingizni, aloqalaringizni, qo‘llab-quvvatlashingizni – umuman, oddiy hayotingizni yo‘qotgan hisoblanasiz [Shamsiyeva 2023: 45].

Oilaviy muhitda chemyon kattalarning hurmatini joyiga qo‘yish va oila sha’nini himoya qilish uchun xizmat qiladi. Oila a’zolari o‘z harakatlari va so‘zlarida ehtiyotkorlik bilan ijtimoiy hurmatni namoyon etadilar. Oila erkagining boshqalar oldida rafiqasiga baqirishi ham nojoiz sanaladi. Yoshlar ota-onalar va kattalar oldida yuzni yo‘qotmaslik uchun o‘z fikrlarini muloyim va ehtiyotkor tarzda ifodalaydi, qarama-qarshi fikrlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytmaslikka harakat qiladi.

Aytilganlar bilan birga, yaxshi biznes hamkorlar yoki boshqa munosabatlardagi shaxslarga ham xuddi oila a’zolaridek muomala qilish mumkin. Umuman, koreyslar ularni bog‘lab turadigan ish, o‘qish yoki yashash joyidagi kishilar guruhining barchasini oila deb qabul qilishlari mumkin.

Bugungi kunda zamonaviy koreys jamiyatida globallashuv, shaxsiy erkinlik va individualizmning rivojlanishi chemyonning an’anaviy shakllariga ta’sir ko‘rsatmoqda. Shunday bo‘lsa-da, ko‘plab ijtimoiy vaziyatlarda, xususan, ish joylari, oilaviy munosabatlar va rasmiy tadbirlarda chemyonni saqlash muhim ahamiyatga ega bo‘lib qolmoqda.

Shunday qilib, chemyon insonning ijobiy yuzi, shaxsning maqomi, boshqalardan oladigan bahosi, unga nisbatan bo‘lgan hurmat yoki bo‘ysunishni bildiradi. Kishi chemyon tamoyiliga rioya qilar ekan boshqalarning obro‘yini saqlab qolish bilan birga, ayni zamonda o‘zi ham obro‘ qozongan bo‘ladi. Shuning uchun

koreyslar boshqalarning obro'yiga e'tibor qaratishadi va u haqida g'amxo'rlik qilishadi.

Xullas, chemyon koreys madaniyatining ajralmas qismi sifatida ijtimoiy hurmat, sha'n va jamiyatdagi uyg'unlikni saqlashda asosiy vosita hisoblanadi. Mazkur tamoyil nafaqat shaxsiy munosabatlarda, balki ish joyi, ta'lim va kundalik hayotda ham katta ahamiyatga ega. Zamonaviy sharoitda chemyon madaniyati o'zgarishlarga duch kelayotgan bo'lsa-da, uning jamiyatdagi roli va ahamiyati davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Brown P., Levinson S. C. *Politeness: Some Universals in Language Usage*. – Cambridge University Press, 1987.
2. Kim Y. *Korean Social Culture*. – Seoul: Bluebird Press, 2007.
3. Shamsiyeva Sh. Madaniyatlararo muloqot (xitoy va o'zbek madaniyatlari misolida). – Toshkent: Bookmany print, – 2023.
4. Choi J. H. *Confucianism and Korean Culture*. – Seoul: Hanul Publishing, 2009.
5. Yoon M. Face-saving and Social Order in Korean Society // *Korean Journal of Sociology*, 2015. 49 (1), 34-50.
6. Park J. *Business Etiquette in Korea*. – Seoul: Hanmi Publishing, 2018.
7. Lee K. Workplace Dynamics and Face in Korea // *International Journal of Human Resource Management*, 2012. 23(4), 562-579.